

AZIZA UMIRZOQOVA

*Shirin
orzułar*

(*She'rlar, qatralar, maqolalar*)



Toshkent
“Istiqlol”
2012

УДК: 821.512.133-1

КБК: 84(5О')7

U-51

84(5О')7 Umirzoqova, Aziza.

U-51


Shirin orzular: she'rlar, qatralar, maqolalar / A.Umirzoqova. — Тошкент: Истиқлол, 2012. — 24 б.

УДК: 821.512.133-1

КБК: 84(5О')7

Bu kitobchada endi ijod maydoniga kirib kelayotgan yosh qalamkashning ilk ilhom namunalarini jam bo'lgan. U ham izlanishda. Ustozlardan saboq olib, o'z ustida ishlasa, bilimini oshirsa o'z orzusiga yetishi mumkin.

Siz ham uning murg'ak qalbidan qaynab chiqqan jo'shqin satrlariga oshna bo'ling.



10 40530
0

ISBN 978-9943-308-47-3

© «Istiqlol nashriyoti», 2012 й.



AZIZANING NIYATI ULUG'

Bu tirishqoq qizni kichikligidan juda yaxshi bilaman. Tirishqoq, kitobga mehr qo'ygan iste'dodli qiz. U buvisi Mahpirat opaning eng sevimli nabirasi. Buvisi respublilkaga taniqli, ustoz bank xodimlaridan biri. U nabirasining iste'dodini sezib bog'chaga qatnashishi bilan bir qatorda turli to'garaklarga boshlab bordi. Aziza O'zbekiston Miliy Televidenyasi qoshidagi «Tomosha» guruhida qatnashib, she'r o'qish san'ati va raqs sirlarini o'rgandi. Bolalar ko'rsatuvlarida ham ishtirok etdi, suxandonlik sari ilk qadamlar qo'ydi.

Lekin Azizaning qiziqishi adabiyot, kitobga bo'lgan cheksiz mehr, ijod edi. U she'rlar, maqolalar yozib «G'uncha», «Tong yulduzi», «Gulxan» va boshqa gazeta va jurnallarga taqdim etdi. Ijod namunalari birin-ketin e'lon qilindi. Sinfdoshlari, do'stlari qo'llashdi, ustozlari fikrlar bildirishdi.

U tinib – tinchimas qiz. Yoshlikning o'ziga xos sho'xliklariga hamohang jo'shib-jo'shib yashashni, ijod qilishni sevadi. O'z ijodida Vatanni, mehribon buvisi, onasini o'zgacha bir mehr bilan kuylaydi. Singlisiga bo'lgan mehribonchlikni she'r bilan izhor etadi. Sevimli maktabiga bo'lgan dil izhori alohida o'zgacha:

*Katta hayot bog 'idan
Dasta gullar teraylik.
Qadrdon maktabjonni,
Eslab-eslab yuraylik.*

Aziza hali yosh. U endigina o'n uch bahorni qarshi oldi. O'zining tirishqoqligi, o'qishga, bilim olishga intilishi, fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirishi tufayli to'q-qizinchi sinfda ta'lim olmoqda.

Azizaning niyati ulug'. Biz unga hayotning kat-ta yo'liga chiqishi uchun, tinmay o'qishini, ustoz adiblardan ibrat olishini, kitoblarni o'ziga eng yaqin do'st tutishini, tinmay mashq ila ijod qilishini istaymiz. Iste'dodini ro'yobga chiqarishi yo'lida tinimsiz mehnat va omad tilab qolamiz.

Jabbor RAZZOQOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist

VATAN

Ulug' ajdodlarim ota yurtisan,
Qutlug' kindik qoni to'kilgan zamin.
Bu yurtga bir bora qadam qo'yganlar,
Unutolmas hatto suvingni ta'min.

Jahonda sendayin buyuk Vatan yo'q,
Quyoshday porlagan mangu o'lkasani.
Paxtaday oqko'ngil vatandoshlarim,
Orzusi ushalgan go'zal maskansan.

Sen mening hayotim, baxtim – faxrimsan,
Tuprog'ing ko'zimga to'tiyo, gavhar,
Xalqimga yurtboshim bosh bo'lsin mangu,
Gulla, O'ZBEKISTON turguncha bashar.



BAYROQ

Mustaqil davlatimiz ramzidir bayroq.
Millatimiz g'ururi, erkidir bayroq.
Ko'zlarga to'tiyo: moviy, yashil, oq,
Vatanimning faxridir — shonidir bayroq.



BUVIMNING BOG'I

Menga buvimning bog'i,
Juda-juda yoqadi.
Gul-daraxtlar shoxiga
Gulu meva taqadi.

Shotut, o'rigu, gilos.
Uzum, anjir, olxo'ri
Pishar navbatma navbat,
Quvonar ko'zim ko'rib.

Har daraxtdan hosilni,
Buvim tersa, albatta,
Bizni mehmon qiladi.
Bog'da baraka katta!



SO'NGGI QO'NG'IROQ

Jaranglaydi qo'ng'iroq,
Orzularim bir jahon.
Ko'zlarimda duv-duv yosh,
Yuragimda hayajon.
O'tib ketdi to'qqiz yil,
Ortga qaytmas sira ham.
Doim bo'lsin dillarda,
Do'stligimiz mustahkam.
Katta hayat bog'idan
Dasta gullar teraylik.
Qadrdon maktabjonni,
Eslab-eslab yuraylik.



* * *

Jarangdor ovoz ila,
Jaranglaydi qo‘ng‘iroq,
Ko‘zlarimda duv-duv yosh,
Har soniya, har bir chog‘,
O‘tib ketdi to‘qqiz yil,
Qaytolmayman ortga hech,
Keling do‘sstar bir bo‘lib,
Qo‘lni qo‘lga beraylik,
Qadrdon maktabjonni,
Doim eslab yuraylik.



SHIRIN QIZ

Singlim Gulmiraga

Mening singlim GULMIRA,
Juda shirin qizgina.
Yuzlari qirmizgina,
Qo'llari jajjigina.
Uni men o'ynataman,
Bog'chaga kuzataman.
U kelguncha bog'chadan,
Men uni sog'inaman.



BUVIJONIM



Bugun birinchi iyul,
Kayfiyat bayramona.
Buvijonim bayrami.
Buvim tengsiz, yagona,
Buvijonim bir dona.

«Tomosha»ga yetaklab,
«Davr»larni ko‘rsatgan,
Bizni odob, bilimga,
Tarbiyaga o‘rgatgan.

Doimo sog‘ bo‘ling deb,
Baxtimizni ko‘ring deb,
Sizga sog‘liq tilayman,
Yaratgandan so‘rayman!

DO‘STIM

Atrofingda halakka,
Do‘stim deb ishonmagan.
Sen qalbiga razm sol,
So‘ngra kuyib, yonmagan.

Ham shodligu qayg‘uda,
U bo‘lsa senga hamroh.
Ana shu chin do‘stingdir.
Avayla uni har choq.



SIZ YAXHISIZ, HAMMADAN

Quchog‘ingda tug‘ildim,
Baxt nuriga yo‘g‘rildim.
Shodlikdan ko‘kda boshim,
Onajonim — quyoshim.

Sizga sodiq qiz bo‘lay,
Ko‘kdagi yulduz bo‘lay,
Bilim, mehnatim bilan,
Kechangiz kunduz qilay.

Siz onasiz hayotga,
Nomingiz kuy, bayotda.
Qo‘sish nomi — alladan,
Siz yaxhisiz hammadan.



KUZ

Menga kuz fasli yoqar
Chunki maktab boshlanar.
Barglar yerga to'kilar,
Borliq yalt — yult tovlanar.

Qushlar uchib ketarlar,
Bizni tashlab ketarlar,
Osmon ham kulib turmas
Bolalar ham o'ynamas.

Ular darsga sho'ng'iysi
Atrof jim— jit bo'ladi.
Kuz fasli shunday fasl!
Menga yoqar bu fasl.



OLTIN FASL

Ostonadan kuz hatlab,
Salqin kunlar boshlanar.
Bulut qovog'in solib,
Osmon ko'zi yoshtanar.

Ariqlarda suv zilol,
Dala, bog' to'la hosil.
Yaproqlar sariq rangda
Kuz shunday — oltin fasl.

Mezon arg'imchoq solar,
Paxtazor — cheksiz dengiz.
Qushlar aytar vidolar —
Olisga ketar essiz!

Pishiqchilik avjida,
Mevalar to'kis, shig'il.
Fasllar ichra a'llo —
Kuz shunday oltin fasl!



VATAN MENING MADHIMDA

Xalqimizda bor azaliy odat,
Salomdan boshlaydi kalomni.
Sizga tilab baxtu saodat,
Kanda qilmay men ham salomni,
Ko'ksimdadir ikkala qo'lim,
Assalomu alaykum!

* * *

Tanlov hay'at a'zolariga,
Bilim konin zukkolariga,
Ko'zlarida nurlar porlagan,
Ustozlari ilmga chorlagan,
Har bir so'zi shirin va laziz
Mehmonjonlar, jonioimdek aziz,
Deyman sizga shundayin kalom,
Xush kelibsiz, Assalom!

* * *

Jannatdayin chiroyli diyor,
Jahon aro tanho guliston.
Dilga berar cheksiz iftihor,
Ona yurtim, hur O'zbekiston.
Madhin aytay bulbuldek sayrab,
Quchog'ida o'saman yayrab.

* * *

Poytaxtim sen, asl bosh kentim.
Go'zal shahrim, azim Toshkentim.
Parvonadir quyoshu oylar,
Bag'rin bezar ulug' saroylar,
Kurantlardan taraladi bong,
O'sha bongdan boshlanadi tong.

Istiqloldan nur emgan shahrim,
Istiqlolga intilgan shahrim!
Amir Temur haykali mag'ur,
Qalbimizga soladi g'urur.
Temuriylar muzeyi ko'r kam,
Unda tarix bo'lgan jamuljam.
Ko'kka ustun telemínora,
Bulutlarga yetgan, bir qara!
Shahidlarning xotirasi deb,
Ataladi muborak maydon,
Chiqarmaymiz ularni yoddan.
Mashhur juda tennis kortlari,
O'ynar yurtim usta – mardlari.
Quchog'ida Minor, Shahriston,
Asli ko'r kam Bodomzor obod.
Har go'shasi yashnagan bo'ston,
Har ko'chasi ravon va obod,
Kundan kunga yashnaydi shodon,
Bu tumanning nomi YUNUSOBOD.


* * *

Mahallamning nomidir «Chinor»,
Chinordayin erur mustahkam,
Ahil, inoq yashaymiz doim,
Qo'lni qo'lga bergenmiz mahkam.

* * *

Maktabimdan ochsam agar so'z,
O'qiyapmiz minglab qorako'z.
Raqamidir ikkiyuz o'ttiz besh,
Kelajakka niyatimiz esh.
Parvonadir aziz muallim
Berar bizga odobu ta'lim.

17.02.2014



* * *

Shu maktabda olaman saboq,
To‘qqizinchi sinfda o‘qiyman,
Azizaman Olimjon qizi,
Oilamning bitta yulduzi.
O‘qituvchim Mamlakat opam,
Shirin so‘zi misoli malham.
Onalardek g‘amxo‘rdir bizga,
Mehribondir har o‘g‘il qizga.

ORZU

Orzularim bir olam,
Qo‘limda olmos qalam.
Yaxshlikka yo‘ldoshman
Zulfiyaga izdoshman.

Cheksiz baxtiyorligim,
She’riyatga yorligim,
Ilhom solar dilimga
Safingizda borligim.





Ishom kelgach, yozaoveraman

MUSTAQILLIK SHAROFATI

Bu qutlug' so'zning mohiyatini mendan ko'ra otabobolarimiz yaxshi bilishadi va qadrlashadi. Omadimiz bor ekan, bizga Mustaqillik Olloh tomonidan in'om etilganday 1991 yil 1 sentyabrda nasib etdi. Juda ko'p ajdodlarimiz bu qutlug' kunlarga erisha olmay, kurasha-kurasha dunyodan o'tdilar. Ular haqida kitoblardan o'qib bilib oldik.

Men ana shu Istiqlol evaziga ona Vatan — O'zbekistonimizni dunyo taniyotgani va tan olayotganini ko'rib, bilib turibmiz. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxta, pilla — ozod yurtimiz nomi bilan Yer yuziga tarqalmoqda. Bizda ishlab chiqarilayotgan mashinalar ko'plab mamlakatlar yo'llarida yelib yurmoqda. Zamonaviy elektron asbob-uskunalar, trikotaj buyumlarimiz jahon bozoriga kirib bormoqda. Sportchilarimiz erishayotgan zafarlarning cheki yo'q. Championlar sha'niga har gal bayrog'imiz ko'tarilganida yuragim hapriqib ketadi, ko'zlarimdan quvondoshlari oqadi.

Bayram shodiyonasida Mustaqillik maydoniga borib, «Baxtiyor ona» yodgorligiga ko'zim tushganida beixtiyor buvimni eslayman. Ularning meni tizzalariga olib, ko'rsatgan mehribonchiliklari esimga tushib ketadi. Yurtimizning bolajon yurt ekanligi g'ururimni oshiradi.

O'zbekistonimizning kelajakda yanada gurkirab rivojlanishi, gullab-yashnashini, dunyoning eng ilg'or davlatlari qatoridan o'rin olishini istayman. Men ham shu ona yurt uchun ozgina bo'lsa-da, hissa qo'shishni, munosib farzand bo'lishni orzu qilaman.

BAXTIMIZGA OMON BO'LING!

Har kimning onasi o'ziga yaqin, topilmas va bebahodit. Agar bilsangiz, men sizni juda-juda yaxshi ko'raman. Biz, farzandlaringizni qalbingiz qo'ri bilan o'stirib, to'g'ri tarbiya bermoqdasiz. «Davrning bolasi» ko'rsatuvida ishtirok etganligim ham sizning mehribonchililingiz tufayli, deb bilaman. Yana bizga odob bobida ham namuna bo'lyapsiz.

Onajonim, bugun sizni tug'ilgan kuningiz bilan chin yurakdan muborakbod etaman. Baxtimizga doimo omon, sog'-salomat bo'lib yuring.

SEVINCHIM ICHIMGA SIG'MAYDI

Maktabimizdagi oktabr oyiga belgilangan ona tili va adabiyot fani oyligi bu safar juda qizg'in o'tdi. «G'azalxon yoshligim», «Xalq qo'shiqlari», «Eng yaxshi devoriy gazeta», «Eng yaxshi sahna ko'rinishi» kabi bellashuvlarda tengdoshlarim o'zlarini ko'rsatishdi.

Men «G'azalxon yoshligim» tanlovida ishtirok etdim. Qatnashchilar Navoiy, Lutfiy, Nodira, Uvaysiy g'azallarini yoddan o'qishdi. Men Navoiyning «Kelmadi» radifli g'azalini yod oldim. Shu g'azal bilan «Til — millat ko'zgusi» nomli tadbirda ishtirok etdim va tanlov g'olibi bo'ldim, tuman bosqichiga yo'llanma

oldim. Tuman bosqichi 17-maktabda bo'lib o'tdi. Unga yozuvchilar ham kelishdi. Men Lutfiyning «Bu ko'nguldur, bu ko'ngul» g'azalini yod oldim. Tadbir so'ngida birinchi o'rinni egallaganimni e'lon qilishdi.

Sevinchim ichimga sig'may, tengdoshlarim bilan baham ko'rish uchun ushbu maqolamni tahririyatga yubordim.

NIYATIMGA YETDIM

Toshkentlik bir guruh urush va mehnat faxriylari, ular qatorida men ham Samarqand sayohatiga yo'lga chiqdik. Avtobusimiz Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlarini ortda qoldirib, tarixiy va navqiron Samarqandga oshiqardi. Sayohatbon Tatyana Paxomova Mustaqillik yillarda yuz bergen o'zgarishlar, buniyod etilgan inshootlar bilan tanish-tirib bordi.

Safarni mazmunli o'tkazish maqsadida nuroniy otaxonlardan bir kishini, keyin meni mikrofon yoniga chaqirishdi. Keksa otaxon yo'l chetidagi o'sib turgan daraxtlarni ko'rsatib, Sirdaryo cho'llarida uchib yuruvchi qumlarni to'xtatish uchun bir necha kilometrga ushbu daraxtlarni ekishda ishtirok etganliklarini gapirib berdilar. Men esa yod oiganim Hamid Olimjon qalamiga mansub «O'zbekiston» she'rini o'qib berdim.

Avtobus oynasiga boqib ketaturib ajoyib manzara guvohi bo'ldim. Bepayon dalalar ko'zni quvontirar edi. Bargini to'kayotgan daraxtlarda qushlar qo'nib olishgan. Simyog'ochlardagi laylak inini ko'rib, hayratlandim.

To'rt soatlik yo'l orqada qolib, Samarqandga yetib keldik. Biz dastlab Imom al Buxoriy majmuasini ziyorat qildik. So'ngra Go'ri Amir, Registon, Shohi zinda yodgor-liklarida bo'ldik.

Registon haqidagi taassurotlarim katta. U yerdagi ajo-yib mitti haykalchalar, zargarlik buyumlari, kelin kiyimlari-dan iborat katta savdoning guvohi bo“ldik. Sayohatbon bizga Registonda har ikki yilda «Sharq taronalari» festivali bo‘lib o‘tishini gapirib berdi.

Ziyoratimiz yakuniga yetib, ortga qaytar ekanmiz, ushbu sayohat haqidagi taassurotlarimni albatta qog‘ozga tushirib, barcha bilan o‘rtoqlashaman deb, dilimga tugib qo‘y-gandim. Bugun shu niyatim amalga oshganidan xursandaman.

HASHAR

Ustozimiz Mamalakat opa Otaqulova ko“kalamzor-lashtirish oyligi borayotganligini e‘lon qildilar. Biz shu munosabat bilan orqa tomondagi ariq va 35-uyning atrofini tozalashimiz kerak ekan. Mamlakat opam rahbarligida bolalarning teng yarmi chorshanba kuni, qolgan yarmi esa shanba kuni hasharga chiqadigan bo‘ldi.

Tozalayotgan yerimizning o“ng tomonida 7-«V» sinfi, chap tomonida 7-«A» sinfi o“quvchilari ham ishslashdi. Eng qizig‘i hashar sinflararo musobaqa tarzida o‘tkazildi. Biz qizlar supurib-sidirib xazonlarni bir joyga yig‘ib qo‘yga-nimizdan so‘ng, boshqa yerlarni supurishga o‘tamiz. O‘g‘il bolalar esa biz yiqqan xazonni chiqindixonaga tashishadi. Hasharimiz ahillik bilan «Kim birinchi?» va «Kim epchil?» shiori bilan davom etdi.

Hashardan so‘ng supurgilarni yig‘ib, sinfga qaytdik.

Men va sinfdoshlarimiz shahrimizning ekologik tozalagiga hissa qo‘sghanimizdan mamnunmiz.

ORZUIM

Inson borki uning orzusi bo'lmasa. Har bir odam yaxshilik sari intilib yashaydi. Kelajakda o'qib-o'rganib, el-yurt hurmatiga sazovor, bilimdon va yetuk mutaxassis, barkamol inson bo'lsam, deydi. Shu orzu-umidlar og'ushida nafaqat o'zini, farzandlarini, nevara-chevaralarini ham tarbiyalaydi. Bu mening fikr-o'ylarim.

Men ham shirin orzular qanotida kelajak sari yelib uchayapman. A'lo baholarga o'qib, buvijonim va onajonimning nasihatlariga qulqoq tutib, ustozlardan ibrat olib ta'lif olmoqdamman. Niyatim kelgusida Abdushukur bobojonim kabi huquqshunos bo'lish, el koriga yarash, xalqning qalbiga malham bo'lish.

Amir Temur bobomiz «Kuch — adolatda» deb behuda aytmaganlar. Agar xalqimiz turmushida, jamiyatimiz hayotidaadolat to'la qaror topib, huquqiy davlat tamoyillari amalga oshib borsa, bizning O'zbekiston yanada kuchli, yanada qudratli bo'ladi.

Men ana shu orzu-niyatga erishish uchun faqat a'lo baholarga o'qishim, namunali hulqim bilan ibrat bo'lishim kerakligini doimo dildan his qilaman. Buning uchun ko'plab kitoblarni o'qishni, gazeta va jurnallarni mutolaa qilish kerakligini ham bilaman, shunga amal qilaman ham.

O'zim ham ijod qilib, she'rilar va maqolalar yozib, respublikaning taniqli nashrlari «Gulxan», «Tong yulduzi» gazeta va jurnallarida muntazam qatnashib turaman.

Men tengdoshlarimga va yaqin do'stlarimga ham orzu-umidlariga erishish yo'lida ulkan muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

MUNDARIJA

Azizaning niyati ulug'	3	Oltin fasl	15
Vatan	5	Vatan mening	
Bayroq	6	madhimda	16
Buvimning bog'i	7	Orzu	18
So'nggi qo'ng'iroq	8	<i>Ihom kelgach,</i>	
Jarangdor ovoz ila...»	9	<i>yozaveraman</i>	
Shirin qiz singlim		Mustaqillik sharofati	19
Gulmiraga	10	Baxtimizga omon bo'ling!	20
Buvijonim	11	Sevinchim ichimga	
Do'stim	12	sig'maydi	20
Siz yaxshisiz,		Niyatimga yetdim	21
hammadan	13	Hashar	22
Kuz	14	Orzuim	22

Adabiy-badiiy adabiyot

AZIZA UMIRZOQOVA

Shirin orzular

Toshkent — «Istiqlol» — 2012-y.

Muharrir *Feruza Razzoqova*
Musahhih *Nargiza Ataboyeva*
Musavvir *Shuhrat Odilov*
Sahifalovchi *Sunnat Po'latov*

Nashriyot litsenziyası AI №217, 03.08.2012-y.
Bosishga ruxsat etildi 10.10.2012 y. Tayms Tad garniturasi.
Bichimi 84×108 1/, Hajmi 1,5 b.t. Ofset qog'ozи. Adadi 100 nusxa.
«Istiqlol nashriyoti», Toshkent sh., 100129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
«Istiqlol nashriyoti» matbaa bo'limida chop etildi.
Toshkent sh., 100129, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Buyurtma № 72.